

BOTANIKA DARSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Xurramov O.G'

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand.

Sunnatullayev A.S

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14497170>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Botanika fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari keltirilgan. Botanika darslaridagi amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Olingan natijalar tahlil qilinib, tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: dars, dars turlari, amaliy mashg'ulot, botanika, kompetensiya, pedagogik texnologiya.

THE EFFECTIVENESS OF ORGANIZING PRACTICAL CLASSES IN BOTANY LESSONS

Abstract. This article presents the results of experiments on organizing practical classes in botany. The importance of properly organizing practical classes in botany lessons is shown.

The results obtained are analyzed and relevant conclusions are given.

Keywords: lesson, types of lessons, practical class, botany, competence, pedagogical technology.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПО БОТАНИКЕ

Аннотация. В статье представлены результаты экспериментов по организации практических занятий по ботанике. Показана важность правильной организации практических занятий на занятиях по ботанике. Полученные результаты проанализированы и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: урок, виды уроков, производственная практика, ботаника, компетентность, педагогическая технология.

Kirish. So'ngi yillarda tabiiy fanlarni o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Uzoq yillar mobaynida o'qitilib kelinayotgan usullar va eski pedagogik texnologiyalar bugungi kunda o'quvchi yoshlarni darsga jalb qilishda, o'zlashtirishida yaxshi samara bermayapti. Shuning uchun ham o'quvchilarni botanika fanini o'zlashtirishida amaliy mashg'ulotlarni bajarish, o'quvchilarni darsga qiziqishini uyg'otib, chuqurroq bilm egallashlarida katta ahamiyatga ega[2].

Amaliy mashg'ulot darslari o'quv jarayonining asosiy shakllaridan biri bo'lib unda, o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlari shakllantiriladi. O'z bilimlarini chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi. O'qituvchi har bir amaliy mashg'ulot darsini o'tkazish rejasini puxta tuzib chiqishi kerak. Uni qanday yangi pedagogik texnologiyalaridan yoki yangi interaktiv usullardan foydalanishni aniqlab olishi zarur. Kerakli ko'rsatma va tarqatma materiallarini oldindan tayyorlab qo'yish talab etiladi. Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi[1,3,4].

Biologiya darslari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- ma'ruza darslari;
- seminar darslari;
- muammoli darslar;
- umumlashtiruvchi darslar;
- didaktik o'yinli darslar;
- modulli darslar;
- labarotoriya darslari;
- amaliy darslar;
- sinov darslari.

Amaliy mashg'ulotlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1.O'quvchilarni amaliy ishni maqsadi, borishi va bajaradigan topshiriqlar bilan tanishtirish;
- 2.O'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish va topshiriqlarni tushuntirish;
- 3.O'quvchilarni kichik guruhlarda har birini mustaqil ishlashini tashkil etish;
- 4.Kichik guruhlarini topshiriq yuzasidan axborotini tinglash.
- 5.Amaliy mashg'ulotni yakunlash[5].

Natijalar va muhokama.

Botanika darslarining ajralmas qismi hisoblangan amaliy mashg'ulotlar to'g'ri tashkil qilinsa o'quvchilarning fan doirasidagi amaliy kompetensiyasini, kasbiy kompetensiyasini keskin ortishiga sabab bo'ladi. Tajribalarimiz davomida 4 ta guruhni tanlab oldik. Shu guruhlarda botanika fanidan amaliy mashg'ulotlarni doimiy o'tib kelinayotgan qoliplarda va yangicha demokratik uslubda tashkil qildik. Amaliy darslarda ko'p hollarda guruhlariga ajratish o'zaro hamkorlikni rivojlantirsa, o'quvchi yoshlarga beriladigan erkinlik mustaqil fikr yuritishga undaydi.

Tavsiya qilinayotgan amaliy ishni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

- 1.O'quvchilarni kichik guruhlariga (o'quvchi sonidan kelib chiqib 4-5 ta guruhga ajratgan ma'qul) ajratish;
- 2.Hamma guruh uchun amaliy ishni masqsadi va bajarish jarayonini tushuntirish;
- 3.Guruh tomonidan ishning to'g'ri bajarilishini kuzatib borish, xato va kamchiliklar mavjud bo'lsa to'g'irlash;
- 4.Amaliy ishni bajarish jarayonini yakunlash;
5. O'quvchilar bajarilgan amaliy ishni daftarga yozib oladilar va tegishli xulosalarni beradilar.
- 6.O'qituvchi rahbarligi ostida har bir guruhning bajargan ishi to'g'riligi, chiqorgan xulosasi muhokama qilinadi.

Xulosa. Botanika fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'uvchilarni kichik guruhlariga ajratish kerak. Amaliy ishni bajarishda o'quvchilarga ko'proq erkinlik berib, mustaqil tajribalarni bajarishga imkon yaratish lozim. Shunda o'quvchi yoshlarning fanga bo'lgan qiziqishi ortadi, jihozlar bilan ishlab, amaliy toipshiriqni bajara olish malakasi shakllanadi.

REFERENCES

1. Aripov N. M. VIRTUAL TA'LIM LABORATORIYALARI: PRINTSIPLAR VA IMKONIYATLAR //UNIVERSAL JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION. – 2023. – T. 1. – №. 8. – С. 17-28.
2. Bozorboyevna X. Z., Sobirovna Q. F. BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH // "ЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДЖИКОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 16-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ 22-ЖИСМ. – С. 201.
3. J.O.Tolipova., A.T.G'ofurov "Biologiya o'qitish metodikasi" Toshkent-2014 44-b.
4. Shomuratova S. B., Ro'zmatova Z. Y., Atajanov O. Y. БОТАНИКА О'ҚИТИШДА О'ҚУВЧИЛАРДА АМАЛИЙ КО'НИКМАЛАРНИ ТАРКИБ ТОПИТИРИШ МЕТОДИКАСИ //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 53-56.
5. Hojiyeva A., Xurramov O. Ziziphora tenuior o'simligining dorivor xususiyatlari / / integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 8-10.
6. Xurramov O. G., Islamov B. S. SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L. NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
7. Xurramov O. G. Islamov B.S SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L //NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. – Т. 257.